

MAHSULOTLARNI VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI SERTIFIKATLASHTIRISHNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATGA TA'SIRI

Sayfullayeva Zaynab Sunnat qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti assistenti, PhD.

Sunnatullaev Shaxzod Bekzod o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15628813>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahsulotlarni va sifatni boshqarish tizimlarini xalqaro standartlar asosida sertifikatlashtirish jarayoni hamda uning tashqi iqtisodiy faoliyatga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilingan. Sertifikatlashtirish eksport va import jarayonlarini yengillashtirish, tashqi bozorda raqobatbardoshlikni oshirish, mijozlar ishonchini mustahkamlash va investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirishda muhim o'rinn tutadi. Shu bilan birga, ISO 9001, ISO 22000, va boshqa sifat tizimlari standartlarini joriy etish orqali korxonalarining xalqaro talablarga moslashuvi va mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sifatni boshqarish, sertifikatlashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyat, ISO standartlari, eksport, raqobatbardoshlik, xalqaro bozor, sifat tizimi.

ВЛИЯНИЕ СЕРТИФИКАЦИИ ПРОДУКЦИИ И СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ НА ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация. В данной статье проанализирован процесс сертификации продукции и систем управления качеством на основе международных стандартов, а также его влияние на внешнеэкономическую деятельность. Сертификация играет важную роль в упрощении экспортно-импортных процессов, повышении конкурентоспособности на внешнем рынке, укреплении доверия клиентов и увеличении инвестиционной привлекательности. Также рассмотрены вопросы адаптации предприятий к международным требованиям и обеспечения стабильности качества продукции посредством внедрения стандартов систем качества, таких как ISO 9001, ISO 22000 и других.

Ключевые слова: управление качеством, сертификация, внешнеэкономическая деятельность, стандарты ISO, экспорт, конкурентоспособность, международный рынок, система качества.

THE IMPACT OF PRODUCT AND QUALITY MANAGEMENT SYSTEM CERTIFICATION ON FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY

Abstract. This article analyzes the process of certifying products and quality management systems based on international standards and its impact on foreign economic activity. Certification plays an important role in facilitating export and import processes, increasing competitiveness in foreign markets, strengthening customer trust, and enhancing investment attractiveness. The article also discusses issues related to enterprise adaptation to international requirements and ensuring product quality stability through the implementation of quality system standards such as ISO 9001, ISO 22000, and others.

Keywords: quality management, certification, foreign economic activity, ISO standards, export, competitiveness, international market, quality system.

Qadimdan bir tushuncha bor - xarid paytida savdo mukammal bo‘lishi uchun uchta tomon ishtirok etishi kerak: birinchi - oluvchi (xaridor) tomon, ikkinchi - sotuvchi (tayyorlab beruvchi) tomon va uchinchi - xolis tomon. Sotuvchi tomon o‘z savdosidan, oluvchi tomon esa xaridi va savdo ob’ektining mavjud sifat ko‘rsatkichlaridan ishonch hosil qilib, qoniqish hissiga ega bo‘lsa, uchinchi tomon - o‘rtada turuvchi «xolis» savdoniadolatli bo‘lishiga yordam berib, sotilayotgan mahsulotning sifat ko‘rsatkichlariga baho bergan[1].

«Sertifikatlashtirish» tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha maxsus qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning «Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriylarining akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari» qo‘llanmasiga kiritilgan.

Sertifikatlashtirish - guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish ma’nolarini bildiruvchi «certifus» (lotinchadan) so‘zidan olingan bo‘lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.

Sertifikatlashtirish ishlab chiqarilayotgan va import qilinayotgan mahsulotlarning muvofiqligini tasdiqlash bo‘yicha faoliyatning eng muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi.

Milliy sertifikatlashtirish tizimida 65 dan ortiq mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditatsiya qilingan idoralar, 8 ta sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish idораси (6-jadval), 225 ta akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriylari faoliyat ko‘rsatib, xalqaro ISO/IEC va EN hujjatlari bilan uyg‘unlashtirilgan 50 dan ortiq rahbariy hujjatlar va 15 dan ortiq sifatni boshqarish tizimlariga tegishli me’yoriy hujjatlar amal qilmoqda.

Kengash tomonidan 2022 yilgacha respublikada standartlashtirish, sertifikatlashtirish rivojlanishining istiqbollari belgilangan va doimiy nazoratga olingan.

Standartlar institutida har yili xalq xo‘jaligining 700 ga yaqin mutaxassislari 41 ixtisoslik bo‘yicha malaka oshirmoqdalar: standartlashtirish bo‘yicha ishlarini tashkil etish, standartlar va o‘lchash vositalari ustidan davlat nazorati, ekspert-auditorlarni tayyorlash, 9000 turkumli xalqaro standartlari asosidagi sifat tizimlarni joriy qilish, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish va boshqalar.

Hozirgi sharoitda tashqi mamlakatlar bilan savdoni, mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni, fan va texnikani rivojlanishi uchun hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatini yaxshilash, ularning raqobatdoshlik qobiliyatini oshirish uchun muntazam ravishda sinovlardan o‘tkazish ehtiyoji ortib bormoqda.

ISO 8402 “Sifatni boshqarish tizimlari. Lug‘at” xalqaro standartida «mahsulot» quyidagicha ta’riflangan - «Mahsulot - faoliyat yoki jarayon natijasidir».

Mahsulot moddiylashtirilgan (qism, buyum) yoki moddiylashtirilmagan (axborot, xizmat) yoki ularning o‘zaro uyg‘unlashgan birikmasi bo‘lishi mumkin. Mahsulotning yaratilishida, sotilishida, yoki iste’molida (ishlatilishida) ya’ni “xayoti davrida” namoyon bo‘ladigan xususiyatlari uning xossalardir.

“Mahsulotning sifati” - uning vazifasiga binoan muayyan ehtiyojlarni qondirishga yaroqlilagini belgilaydigan xossalari majmuasidir. Mahsulotning sifati, uni tashkil etuvchi qismlarning sifati majmuasidan tashkil topadi.

“Mahsulot sifatining ko‘rsatkichi” deb, mahsulot sifatiga kiruvchi xossasining miqdoriy

tavsifiga aytildi.

Sifat ko'rsatkichlari quyidagi asosiy talablarga javob berishlari lozim: ular turg'un bo'lishi kerak; mahsulotning samarasi bo'lishi kerak; fan va texnika yutuqlari inobatga olingan bo'lishi kerak; muayyan vazifasiga ko'ra ma'lum ehtiyojlarni qondirishga layoqatli bo'lishi kerak[2].


“Mahsulotning xavfsizligi” - uning murakkab xossasi bo'lib, inson, uning mulki, tabiat va atrof-muhit uchun zararsiz ta'sir etish miqdorini belgilaydigan ko'rsatkichlaridir.

Mahsulotning muayyan ehtiyojga mos kelish darajasi va ehtiyojni qoniqtirishdagi harajatlar bo'yicha raqobatdagi mahsulotlardan ajralib turishini ifodalovchi tavsifi uning “raqobatbardoshligi” deb ataladi.

Mahsulotning belgilangan sifat ko'rsatkichlarini tanlash, bu ko'rsatkichlarining qiymatlarini aniqlash va ularni boshqa mahsulotning sifat ko'rsatkichlari qiymatlari bilan taqqoslashni o'z ichiga oluvchi faoliyat “mahsulot sifatining darajasini baholash” deb ataladi[3].

Sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish

9000 turkumli ISO standartiga mos keluvchi sifatni ta'minlash tizimlarini sertifikatlashtirish chet mamlakatlarida keng rivojlangan hisoblansada, ayni paytda O'zbekistonda bu muammoga oxirgi 2 yil mobaynida jiddiy e'tibor bilan qaralmoqda.



1-rasm. Mahsulot sifatini shakllantiruvchi va ta'minlovchi bosqichlar («Sifat xalqasi»)

Ortda qolishimizning sabablaridan biri - mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining o‘z mahsulotlarini eksportga chiqarishga intilishlari pasligidandir. Hozirgi kunda juda oz miqdordagi korxonalar sifat tizimlarini sertifikatlashtirish ahamiyati va zarurligini angladilar.

Sifat tizimiga sertifikat – mahsulot yetkazib berish shartnomasini tuzishda asosiy omillardan biri bo‘lib, g‘arb ekspertlarining fikricha, yaqin kelajakda Yevropa bozorlarida 95 % gacha shartnomalar mahsulot yetkazib beruvchi firmada sifat tizimi sertifikati bo‘lgandagina tuzilishi ko‘zda tutilmoqda. Rossiyalik ekspertlar baholashlaricha oxirgi besh yil mobaynida rossiyalik ishlab chiqaruvchilarining eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarini yuborish bo‘yicha 30%ga yaqin shartnomalar sertifikat bo‘lmaganligi uchun tuzilmagan[4-5].

Arizaga muvofiq sertifikatlashtirish idorasi sohaga tegishli mutaxassislardan guruh tuzadi va ular joyiga borib vaziyatni o‘rganishadi. Nazorat natijalari asosida dalolatnomaga tuziladi va sertifikatlashtirish idorasiga qaror qabul qilish uchun topshiriladi.

1-jadval

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish bosqichlari

Bosqich nomlanishi	Qisqacha mazmuni	Bajaruvchi
Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishga talabnomani berish	Talabnomani rasmiylashtirish va yakuniy materiallarni tayyorlash	Talabgor korxona
Dastlabki baholash	Yakuniy materiallar ekspertizasi, sotilayotgan mahsulot sifati haqidagi axborotni yig‘ish va tahlil qilish, keyingi bosqichlarni o‘tkazishni maqsadga muvofiqligini baholash	Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish idorasi
Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish dasturini tuzish	Ishlab chiqarish jarayonlari va ob’ektlarini, qaror qabul qilish qoidalarini reglamentga solish (yoki amaldagi metodikani baholash)	Sertifikatlashtiris h idorasi
Ishlab chiqarishni tekshirish	Ekspertlar guruhi (komissiya)ni tuzish, sertifikatlashtirish metodikasiga ishlab chiqarishning mos kelishini tekshirish, tekshirish natijalari haqida hisobot va bayonomalarini tuzish	Sertifikatlashtiris h idorasi
Ishlab chiqarishga muvofiqlik sertifikatini topshirish	Ishlab chiqarishga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish, uni Davlat reestriga kiritish va sertifikatni korxonaga berish	Sertifikatlashtiris h idorasi
Sertifikatlashtirilayot gan jarayon ustidan inspeksion nazorat o‘rnatish	Sertifikatlashtirishni metodikasiga mos kelgan holda mahsulotni tayyorlash sifati doimiyligi jarayonining nazorati	Sertifikatlashtiris h idorasi

Manba: «Texnik jihatdan tartibga solish» agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval

Sifat tizimlarini sertifikatlashtirish bosqichlari

Ishlar tarkibi	Ijrochi
<i>1- Bosqich. Sertifikatlashtirish uchun dastlabki baholash.</i>	
1.1. Sifat tizimlarini va hujjatlarni sertifikatlashtirishga tayyorlash	Korxona
1.2. Sifat tizimlarini sertifikatlashtirishga ariza	Korxona
1.3. Sifat tizimlarini dastlabki tekshirish va baholash	Sertifikatlashtirish bo'yicha idora
1.4. Sifat tizimlarini sertifikatlashtirishga shartnoma tuzish	Korxona, Sertifikatlashtirish bo'yicha idora
<i>2- Bosqich. Sifat tizimlarini yakuniy tekshirish va baholash</i>	
2.1. Sifat tizimlarini yakuniy tekshirish va baholashga tayyorlash	Korxona
2.2. Sifat tizimlarini yakuniy tekshirish va baholash dasturini tayyorlash	Sertifikatlashtirish bo'yicha idora
2.3. Sifat tizimlarini yakuniy tekshirish bo'yicha dastlabki majlis o'tkazish	Korxona, sertifikatlashtirish bo'yicha idora
2.4. Sifat tizimlarini tekshirish	Sertifikatlashtirish bo'yicha idora, korxona
2.5. Tekshirish natijalari asosida yakuniy majlis uchun dastlabki xulosalarni chiqarish	Sertifikatlashtirish bo'yicha idora
2.6. Yakuniy majlis o'tkazish	Sertifikatlashtirish bo'yicha idora, korxona
2.7. Sifat tizimlarini tekshirish bo'yicha xisobot tayyorlash va yuborish	Sertifikatlashtirish bo'yicha idora

Manba: «Texnik jihatdan tartibga solish» agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Sertifikatning amal qilish muddatini bekor qilish sud idoralarining qarori bilan amalga oshiriladi. Ko'rilgan choralar natijasida sertifikatga ega korxonalarning sifatli mahsulotni ishlab chiqarishga e'tibori kuchaydi. Erkinlashtirish jarayonlarining sertifikatlashtirish masalalarini ham qamrab olganligi davlatimiz rahbariyati tomonidan ushbu sohaga e'tiborning yaqqol dalilidir.

O'r ganilgan ma'lumotlarga asosan yil sayin tekshirishlar soni kamaymoqda va korxonalarning o'z e'tiborini faqat ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflashga sharoitlar yaratilmoxda, shu bilan birga korxonalarning standartlar talablarini buzish hollari ham kamayib va natijada ularga qo'llanilgan iqtisodiy jarimalar qisqarmoqda. Korxonalar harajatlarining kamayishi mablag'larni sertifikatlashtirishga yo'naltirishga imkoniyat tug'dirmoqda.

REFERENCES

1. Sh.Sunnatullayev, A.A.Samatov, Xalqaro akkreditatsiya tizimi asosida o‘zbekiston respublikasida sertifikatlash tizimini takomillashtirish va tahlil qilish “CENTRAL ASIAN FOOD ENGINEERING AND TECHNOLOGY” elektron ilmiy jurnali february, 2025, p 92-97
2. Sh.Sunnatullayev, A.A.Samatov , Improving the Implementation of the Product Management System in the Republic of Uzbekistan Based on the International Accreditation Framework “American Journal of Education and Evaluation Studies “ American Journal of Education and Evaluation Studies April , 2025, p 215-218
3. Сайфуллаева, З. С., & Исматуллаев, П. Р. (2021). Сравнительный анализ требований к показателям качества натурального мёда, приведенных в нормативных документах. Universum: технические науки, (11-3 (92)), 80-85
4. Samatov A.A., Hamroqulov G‘. Testing and Certification of Goods in International Trade, Methodical Manual. Tashkent, 2023
5. Samatov Azizjon Abdulakhovich, Rajabov Alisher Nusratolla ogli. “Metrology and Standardization” Textbook, 2025.